



**KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATI IJTIMOIY-IQTISODIY  
SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH BO'YICHA  
YONDASHUVLAR**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10629685>

**Toshaliyeva Saodat Toxirovna**

*Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent*

*Raqamli iqtisodiyot, biznes boshqaruvi  
va ekonometrika kafedrasi mudiri*

**Yangiboeva Gavxaroy Omonovna**

*Jarqo'rg'on biznes va yengil sanoat texnikumi direktori*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy samaradorligini baholashga qaratilgan bo'lib, unda tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar tizimni turkumlashtirish bo'yicha yondashuvlar ishlab chiqilgan, ushbu ko'rsatkichlarni xarajat ko'rsatkichlari bilan solishtirish orqali moliyaviy faoliyat samaradorligi oshishi ilmiy asoslangan holda baholangan, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan

**Kalit so'zlar**

tadbirkorlik, samaradorlik, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, mehnat unumdarligi, unumdarligi, rentabellik

**АННОТАЦИЯ**

Данная статья направлена на оценку социально-экономической эффективности предпринимательской деятельности, в которой были разработаны подходы к категоризации системы факторов, влияющих на уровень экономической и социальной эффективности предпринимательской деятельности, путем сравнения этих показателей с показателями затрат была проведена научная оценка повышения эффективности финансовой деятельности, и были разработаны рекомендации

**Ключевые слова**

предпринимательство, эффективность, социально-экономическая эффективность, производительность труда, результативность, рентабельность



## **ANNOTATION**

This article is aimed at assessing the social and economic efficiency of entrepreneurial activity, in which approaches were developed to categorize the system of factors affecting the level of economic and social efficiency of entrepreneurial activity, by comparing these indicators with cost indicators, a scientific assessment of improving the efficiency of financial activity was carried out, and recommendations were developed

### **Keywords**

entrepreneurship, efficiency, socio-economic efficiency, labor productivity, efficiency, profitability

### **Kirish**

Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik faoliyatini baholashning eng muhim vazifalaridan biri uning faoliyati samaradorligini oshirishdan iborat. Samaradorlik eng muhim iqtisodiy kategoriyalardan biridir. Tadbirkorlik faoliyati samaradorligi faoliyat natijasini unga erishish uchun sarflangan xarajatlarga nisbati sifatida aniqlanadi.

Har qanday tadbirkorlik tuzilmasi uchun ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning mavjudligi muhim sanaladi. Ular ishlab chiqarish tizimi rivojlanishining asosiy sababchisi hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning asosiy tarkibiy qismi sifatida tadbirkorlik faoliyatiga inson omilini faol jalg etish ish kuchini takror ishlab chiqarish va uni har tomonlama rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishni zarurat qilib qo'yadi. Ushbu munosabatlarni yetarli darajada baholamaslik nafaqat mehnat unumdarligi tushib ketishiga, shu bilan birga intellektual salohiyat rivojlanish imkoniyatlarini pasayishiga olib keladi[2].

Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy samaradorligi - bu ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, uning holatini yaxshilashga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyatining jamiyat hayotidagi faolligidir.

Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy samaradorligi- bu iqtisodiy o'zaro aloqadorlikni innovatsion integral ko'rsatkichidir. Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy samaradorligi ijtimoiy-iqtisodiy kommunikatsiyalar tizimini tuzishga asoslanadi, hamda u vaqt "chaqiruvi"ga javob bera oladigan potentsial imkoniyatlar darajasini oshirib, jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyalanishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati ijtimoiy samaradorligini aniqlash samaradorlik mezonlarini tanlash bilan bevosita bog'liq. Mezon- bu belgi bo'lib, uning asosida baho, klassifikatsiya ishlab chiqiladi. Tadbirkorlik faoliyati ijtimoiy samaradorligi asosiy mezoni moddiy-ishlab chiqarish mezoni emas, balki ijtimoiy va insoniy



jihatlar: ta'lim, ilmiy tadqiqot, qayta ishlash sohalarini rivojlantirish, inson salomatligi va atrof-muhitni himoya qilish, ijtimoiy keskinlik darajasini kamaytirish kabilardir. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy tadbirkorlik faoliyatni o'z vazifalarini bajarib bo'lishi munosabati bilan yo'qolib qolmaydi, balki har doim dunyoning xavf-xatari va murakkabligiga javoban yangi nostandart yechimlarni topishga tayyor jamiyat uchun zarur institut sifatida faoliyatini davom ettiradi.

Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi va natijaviylikni baholashda o'ziga xoslikka ega. Bu yerda natija- moliyaviy va ijtimoiy qaytimdir. Foyda asosiy maqsad hisoblanadi, lekin bu yagona maqsad emas, foyda ijtimoiy maqsadni amalga oshirishda qayta investitsiya qilinadi.

Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tashqi va ichki turlarga ajratish mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy samaradorligining tashqi ko'rsatkichlari jamiyat hayoti natijalarini tavsiflaydi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, iqtisodiy samaradorlik- iqtisodiy tizimning natijaviyligi bo'lib, sarflangan resurslarning foydali yakuniy natjalari bilan ifodalanadi. Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy samaradorligi faqat olingan foyda xajmi bilan emas, balki biznes qiymatining o'zgarishi bilan ham baholanadi[5].

Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorlik darajasiga tashqi va ichki muhit omillari butun boshli tizimi ta'sir qiladi.Tashqi va ichki muhit omillari quyidagi belgilar bo'yicha turkumlanishi mumkin: ta'sir darajasiga ko'ra( asosiy va ikkinchi darajali); miqdoriy o'lchov darajasiga ko'ra(o'lchab bo'ladigan, o'lchab bo'lmaydigan); ta'sir qilish davriyiligiga ko'ra(doimiy, vaqtinchalik); ta'sir doirasi bo'yicha(umumiy, maxsus); faoliyat xususiyati bo'yicha (ob'ektiv, sub'ektiv), aniqlash usuliga ko'ra (bevosita, bilvosita) va bq.

Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy samaradorligi samaradorlikni baholashning uchta majmuaviy yondashuvi asosida baholanishi mumkin: ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy[4].

Ishlab chiqarish yondashuvi mahsulot ishlab chiqarishda resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish quyi tizimi uchun quyidagi qo'shimcha ko'rsatkichlarni taklif etish mumkin:

- resurs qaytmi bo'yicha hisoblanadigan ishlab chiqarish samaradorligi;
- mehnat unumdorligi;
- rentabellik;
- ishlab chiqarish aloqalari samaradorligi ko'rsatkichi;
- ishlab chiqarishni boshqarish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi;



- xodimlarni boshqarish samaradorligi ko'rsatkichi;
- ishlab chiqarish va marketing ma'lumotlaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

Tijoratli yondashuv mahsulotni sotish samaradorligini baholash imkonini berdi. Tijorat quyi tizimi samaradorligi mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda savdo tarmog'i turli elementlarining mustahkamligi, o'zaro aloqadorligini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

- ✓ sotish turli oqimlari samaradorligi ko'rsatkichlari;
- ✓ sotish tarmog'ini samarali boshqarishni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- ✓ vositachilarni tanlash ishonchliligi ko'rsatkichi;
- ✓ sotish va marketing ma'lumotlaridan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- ✓ sotish davri davomiyligi;
- ✓ umumiy tovar aylanmasida foydaning nisbiy miqdorini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Moliyaviy yo'nalish ishlab chiqarish-tadbirkorlik tuzilmalari ichki va tashqi moliyaviy oqimlarini boshqarish samaradorligini ifodalaydi. Moliyaviy quyi tizimlar samaradorligini baholashda korxonaning moliyaviy hisobotlarida aks etadigan ko'rsatkichlar majmuasidan foydalaniladi. Faoliyatni moliyaviy natijalarini tavsiflashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

- ❖ asosiy faoliyatdan olingan daromad;
- ❖ ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi;
- ❖ umumxo'jalik faoliyatidan olingan daromad;
- ❖ soliq to'lovlarigacha bo'lgan daromad;
- ❖ sof foyda va bq.

Ushbu ko'rsatkichlarni xarajat ko'rsatkichlari bilan solishtirish orqali moliyaviy faoliyat samaradorligi haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

### Xulosa va takliflar

Taklif etilayotgan yondashuvlar amaliy ahamiyatga ega bir qator vazifalarni hal qilish imkonini beradi:

- optimal strategik yo'nalishlarni tanlash;
- tadbirkorlikning maqsad va vazifalarini asoslash;
- faoliyat natijalarini prognoz qilish;
- korxonaning bozor imkoniyatlarini tahlil qilish va raqobat muhitida uning o'rnnini tavsiflash;
- ishlab chiqarish tizimining strategik moslashuvchanlik printsipidan foydalanish.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "2022-2026 yllarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni
2. Ветров Д.В. Проблемы обеспечения экономической надежности предпринимательской деятельности // Социально-экономические явления и процессы. 2010. № 3. С. 71-75.
3. Лускатова О.В., Гленкова Е.О., Шалова В.А. Методический подход к экономической оценке влияния предпринимательства на динамику развития региона// Фундамент. исслед. 2013.№ 2-3. С. 594-598.
4. Mouseeva И.И. Принципы и методы оценки эффективности предпринимательской деятельности // Вестник Тамбовского университета. Серия Гуманитарные науки. Тамбов, 2010. Вып. 6 (86). С. 38-44.
5. URL: [www.rfba.ru/analitika/ekonomicheskaya\\_effektivnost.html](http://www.rfba.ru/analitika/ekonomicheskaya_effektivnost.html) (дата обращения:08.07.2021).